

O'ZBEKISTON SANOAT KLASTERLARI TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING IQTISODIY ASOSLARI

Abdurahmanova Dildora Adham qizi
Xalqaro Nordik Universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston sanoat klasterlari tizimini zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda modernizatsiya qilishning nazariy, institutsional va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan klaster yondashuvining raqobatdosh sanoatni shakllantirishdagi o'rni, ishlab chiqarish zanjiridagi integratsion munoqabatlar, innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlari va resurslardan samarali foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari o'rganilgan. Shuningdek, jahon tajribasi va milliy amaliyot asosida klasterlar faoliyatining dolzarb muammolari tahlil qilinib, ularni barta'raf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston sanoatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi yangi klaster modelini shakllantirishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: sanoat klasterlari, iqtisodiy modernizatsiya, raqobatbardoshlik, ishlab chiqarish integratsiyasi, innovatsiya, resurslardan foydalanish, klaster modeli, infratuzilma, institutsional rivojlanish, eksport salohiyati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические, институциональные и практические основы модернизации системы промышленных кластеров Узбекистана в условиях современной экономики. Автором изучена роль кластерного подхода в формировании конкурентоспособной промышленности, механизмы интеграции в производственных цепочках, внедрение инноваций и эффективное использование ресурсов. На основе международного опыта и национальной практики проанализированы актуальные проблемы функционирования кластеров, предложены практические рекомендации по их устранению. Полученные результаты могут служить методологической основой для формирования новой модели устойчивого промышленного развития Узбекистана.

Ключевые слова: промышленные кластеры, экономическая модернизация, конкурентоспособность, производственная интеграция, инновации, использование ресурсов, кластерная модель, инфраструктура, институциональное развитие, экспортный потенциал.

Annotation. This article analyzes the theoretical, institutional, and practical foundations for modernizing Uzbekistan's industrial cluster system in line with current

economic realities. The author explores the role of the cluster approach in building a competitive industrial sector, mechanisms of integration within the production chain, the implementation of innovations, and economic mechanisms for efficient resource utilization. Based on global experience and national practice, the paper identifies the current challenges of cluster functioning and proposes actionable recommendations. The findings may serve as a methodological basis for shaping a new model of sustainable industrial development in Uzbekistan.

Keywords: industrial clusters, economic modernization, competitiveness, production integration, innovation, resource utilization, cluster model, infrastructure, institutional development, export potential.

Kirish. Jahon iqtisodiyoti jadal globallashuv jarayonlari, mintaqaviy integratsiya, raqobatbardoshlikning yangi omillari va texnologik transformatsiyalar ta'sirida tub o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarish jarayonlarining tarmoqlararo integratsiyasi, qo'shilgan qiymat zanjirlari asosida shakllanayotgan kooperatsion munosabatlar va innovatsion sheriklik asosidagi yangi biznes modellari milliy iqtisodiyotlarning strukturaviy yangilanishiga kuchli turtki bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sanoat klasterlarini shakllantirish va ularni tizimli modernizatsiya qilish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham bugungi kunda sanoat ishlab chiqarish salohiyatini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, resurslardan samarali foydalanish va eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida klaster yondashuvini bosqichma-bosqich tatbiq etmoqda.

Mazkur jarayon respublika miqyosida yirik sanoat markazlari va ularni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaviy, moliyaviy va innovatsion muhitni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, buning uchun raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan klaster strukturalarini tashkil etish zaruriyatga aylandi. Shu bois, O'zbekistonning industrial rivojlanish strategiyasida hududiy va tarmoqlararo klasterlashtirish konsepsiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq, amaliyotda bu tizimning samaradorligini oshirish uchun nafaqat infratuzilmaviy va texnologik modernizatsiya, balki iqtisodiy mexanizmlarning takomillashuvi, institutsional muhitning mustahkamlanishi va davlat-hususiy sheriklik asosida boshqaruv modellari joriy etilishi lozim.

Sanoat klasterlarini modernizatsiya qilish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlik, innovatsion salohiyat, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, tashqi bozorlarga kirib borish imkoniyatlari kabi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan klasterlarning rivoji iqtisodiy xavfsizlik va milliy manfaatlar nuqtai

nazaridan muhim strategik ustunliklar yaratmoqda. Shuningdek, bu tizimda zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, ixtisoslashgan ishchi kuchini tayyorlash, ilmiy - tadqiqot faoliyatini ishlab chiqarish ehtiyojlariga yo'naltirish orqali barqaror rivojlanish uchun zamin yaratiladi.

Ushbu maqolada O'zbekiston sanoat klasterlari tizimini zamonaviy iqtisodiy talablarga mos tarzda modernizatsiya qilishning nazariy asoslari, institutsional omillari va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, klasterlar asosida iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish, tarmoqlararo kooperatsiyani kuchaytirish va mahalliyashtirish darajasini kengaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur tahliliy yondashuv, respublika sanoat salohiyatini raqobatbardosh va barqaror iqtisodiy rivojlanish mezonlari asosida shakllantirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Sanoat klasterlari konsepsiyasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyotda muhim o'rin egallagan bo'lib, uning metodologik asosi dastlab M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan "milliy raqobatdosh ustunliklar" nazariyasida o'z aksini topgan. Porter klasterlarni geografik jihatdan yaqin bo'lgan, o'zaro bog'liq ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar, yetkazib beruvchilar va muayyan soha doirasidagi institutlarning konsentratsiyalashgan majmuasi sifatida tavsiflagan. Uning fikriga ko'ra, raqobat ustunligi endilikda alohida korxonalarning emas, balki butun klasterning innovatsion salohiyati va ichki kooperatsion munosabatlari asosida shakllanadi. Bu yondashuv Yevropa Ittifoqi, Janubi - Sharqiy Osiyo va AQShda sanoatni reindustrializatsiya qilish strategiyasining markaziy g'oyasiga aylangan.

So'nggi yillarda postsovet makonida ham klasterlashuvga oid iqtisodiy izlanishlar faollashgan bo'lib, Rossiya, Qozog'iston va Belarus iqtisodiyotida bu model orqali hududiy sanoatni tiklash, mahalliyashtirishni chuqurlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida sezilarli tajriba to'plangan. Ayni paytda O'zbekiston iqtisodiyotida klasterlashuv dastlab qishloq xo'jaligi (ayniqsa, paxta-to'qimachilik) sohalarida joriy etilgan bo'lsa-da, keyinchalik sanoatning boshqa tarmoqlarida ham bosqichma-bosqich qo'llanilmoqda. Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda klaster modelining to'liq iqtisodiy-metodologik asoslari, tarmoq xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan raqamli transformatsiya strategiyalari va boshqaruv mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan.

Mavzuga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni anglatadiki, klaster tizimining muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlat siyosatining uzluksizligi, tarmoqlararo kooperatsiyaning chuqurligi va innovatsion infratuzilmalarning mavjudligiga bog'liq. Xususan, J. Humphrey va H. Schmitz tomonidan ishlab chiqilgan global qiymat zanjirlari nazariyasi sanoat klasterlarining tashqi bozorlar bilan integratsiyasi uchun metodologik asos yaratgan. Ushbu yondashuvlar doirasida korxonalarning nafaqat ichki, balki tashqi

bog'liqliklarini aniqlash, klasterning eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston olimlari, jumladan, A. Xayitov, M. Alimov, N. Abdullayev va boshqalar tomonidan so'nggi yillarda klasterlar samaradorligini oshirish, ularni boshqarish tizi mini takomillashtirish, shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda klasterlarning investitsion jozibadorligi, raqobatdosh infratuzilma shakllantirishdagi roli, shuningdek, klaster ichidagi resurs aylanishining iqtisodiy tahlili yetarli darajada chuqur yoritilmagan.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, mavjud adabiyotlar sanoat klasterlari tizimini tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilsa-da, O'zbekiston iqtisodiy modeli, hududiy ixtisoslashuv, mahalliy resurslardan foydalanish darajasi va mehnat bozori xususiyatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan kompleks yondashuvlar hali yetarlicha rivojlanmagan. Shu bois, mazkur tadqiqot klaster tizimini milliy iqtisodiyot real holatidan kelib chiqqan holda chuqurroq tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratiladi.

Munozara. Sanoat klasterlarini modernizatsiya qilish masalasi nafaqat O'zbekiston, balki rivojlanayotgan barcha davlatlar uchun iqtisodiy rivojlanishning yangi paradigmalarini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va sanoatni tizimli qayta qurish siyosati sharoitida klaster modelining zamonaviy shakllari – innovatsion klasterlar, texnoparklar, sanoat zonalari va eksportga yo'naltirilgan kooperatsion birliklar – ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Biroq bu jarayonni faqat tarmoq doirasida emas, balki keng institutsional va makroiqtisodiy kontekstda baholash lozim. Xususan, klasterlar doirasida yaratiladigan qiymat zanjirlari, mehnat taqsimoti, texnologik uzviylik va servis infratuzilmasining ko'rinishlari O'zbekiston iqtisodiy modelining transformatsiyasida yangi sifat bosqichini boshlab bermoqda. Mavjud amaliyot shuni ko'rsatadiki, paxta-to'qimachilik, charm-poyabzal, farmatsevtika, avtomobilsozlik va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida klasterlashuvning dastlabki bosqichlari shakllanmoqda. Ushbu klasterlar doirasida ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va logistika kompaniyalari o'rtasidagi vertikal va gorizontal integratsiya jarayonlari hali to'liq mukammallikka erishmagan bo'lsa-da, dastlabki sinov bosqichida aniq iqtisodiy natijalar berayotganligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, xususiy sektorning texnologik yangilanishga intilishi, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan imtiyozlar va subsidiyalar, eksportni rag'batlantirish siyosati klaster tuzilmalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu tizimni chuqurlashtirishda yetarli darajadagi ishlab chiqarish diversifikatsiyasi, malakali kadrlar tayyorlash tizimi, moliyaviy xizmatlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish ham muhim

omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq, sanoat klasterlari tizimining O'zbekistondagi amaliyotini tahlil qilish davomida bir qator tizimli muammolar mavjudligi ayon bo'lmoqda. Birinchidan, ko'plab klaster tashabbuslari yuqoridan pastga qaratilgan markazlashgan yondashuv asosida shakllanayotganligi sababli, klaster a'zolari o'rtasida tabiiy bozor mexanizmlariga asoslangan ichki kooperatsiya darajasi sust qolmoqda. Ikkinchidan, texnologik transfer, innovatsiyalarni tijoratlashtirish va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan ishlab chiqarish o'rtasida kuchli aloqalar yetishmayapti. Bu esa klasterlar ichida qo'shilgan qiymat yaratish zanjirining uzluksizligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Uchinchi muammo sifatida moliyaviy va investitsion infratuzilmalarning zaifligi, xususan, klaster a'zolari uchun mavjud bank kreditlari, sug'urta, ventur kapital va innovatsion fondlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligini ko'rsatish mumkin.

Shu o'rinda, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda sanoat klasterlari faoliyatini tartibga soluvchi aniq normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish, klaster a'zolari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish va boshqaruvni desentralizatsiya qilish zaruriyati dolzarb bo'lib bormoqda. Klaster ichida ishtirokchilarning manfaatlar muvozanatini saqlovchi muvofiqlashtiruvchi markazlarning faoliyati, innovatsion markazlar va inkubatsiya muassasalari bilan integratsiyalashuvi orqali yuqori samarali muhit yaratilishi mumkin. Shuningdek, hududiy klasterlar uchun ixtisoslashgan infratuzilma – transport-logistika tizimlari, texnologik parklar, kadrlar tayyorlash markazlari – shakllantirilishi orqali klasterlarning barqaror rivoji ta'minlanadi. Yana bir muhim jihat shundaki, sanoat klasterlari raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi mazmun kasb etmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish zanjirlarida IoT, Big Data, raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali klaster samaradorligini keskin oshirish mumkin. Bu esa, O'zbekiston sanoatini kelgusida global bozorlar bilan integratsiyalashuvi va xalqaro qiymat zanjirlariga qo'shilishida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bois, klasterlarni faqat ishlab chiqarish birliklari majmuasi sifatida emas, balki bilimlar, innovatsiyalar va texnologik yutuqlar almashinuvi markazi sifatida rivojlantirish zarur. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda sanoat klasterlari tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar muhim ijobiy natijalar bermoqda, biroq bu tizimning to'liq ishlashi uchun chuqur institutsional islohotlar, kompleks iqtisodiy mexanizmlar va ilmiy asoslangan strategik yondashuvlar zarur. Kelgusida bu yo'nalishda bosqichma-bosqich modernizatsiya va raqamlashtirishni birlashtirgan holda samarali klaster tizimlari yaratish O'zbekistonning raqobatbardosh, innovatsion va eksportbop sanoatini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. O'zbekiston sanoat klasterlari tizimini modernizatsiya qilish — respublikaning barqaror va raqobatbardosh iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda ustuvor

yoʻnalishlardan biri boʻlib qolmoqda. Klaster yondashuvi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki innovatsiyalarni joriy etish, resurslardan kompleks foydalanish, tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish va eksport salohiyatini kuchaytirishda ham muhim vosita sifatida namoyon boʻlmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, klasterlashuvning muvaffaqiyati koʻp jihatdan davlat siyosatining izchil va muvofiqlashtirilgan yondashuviga, klaster aʼzolari oʻrtasida iqtisodiy manfaatlar muvozanatining taʼminlanishiga, shuningdek, zamonaviy boshqaruv, moliyaviy va raqamli texnologiyalarni faol joriy etishga bogʻliq. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda mavjud sanoat klasterlarining rivoji ijobiy tendensiyalar bilan birga, muayyan tizimli muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Bular qatoriga texnologik yetishmovchiliklar, ilm-fan va ishlab chiqarish oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikning sustligi, moliyaviy infratuzilmaning cheklanganligi va klaster boshqaruvi sohasidagi institutsional boʻshliqlar kiradi. Shu sababli, sanoat klasterlarini modernizatsiya qilishda kompleks yondashuv zarur boʻlib, bu jarayonda normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda milliy klaster strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari Oʻzbekistonning sanoat salohiyatini mustahkamlash, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish va xalqaro iqtisodiy tizimga samarali integratsiyalashuvni taʼminlash yoʻlida muhim ilmiy va amaliy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
2. Humphrey, J., & Schmitz, H. (2002). How Does Insertion in Global Value Chains Affect Upgrading in Industrial Clusters?. Regional Studies, 36(9), 1017–1027.
3. Хайтов, А. (2020). Ўзбекистонда кластерлашувнинг иқтисодий самарадорлиги. Иқтисодиёт ва таълим, №2, 33–38.
4. Alimov, M. (2019). Sanoat klasterlari va ularning rivojlanish omillari. Toshkent: Iqtisodiyot.
5. Schmitz, H. (1995). Collective Efficiency: Growth Path for Small-Scale Industry. Journal of Development Studies, 31(4), 529–566.
6. Abdullayev, N. (2021). Oʻzbekiston sharoitida klaster modelining institutsional asoslari. Iqtisodiy tadqiqotlar, №3, 19–27.
7. European Cluster Observatory (2020). Cluster Policy in Europe. <https://www.clusterobservatory.eu>

8. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. (2023). Sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasi. Rasmiy nashr.
9. World Bank. (2022). Uzbekistan Country Economic Update. <https://www.worldbank.org>
10. UNIDO. (2017). Cluster Development and the Role of Innovation. United Nations Industrial Development Organization.

